

O‘zbekiston
Metama'lumot
Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Ishlab chiqilgan sana: 03.12.2019 yil

Oxirgi yangilangan sana: 30.08.2021 yil

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma‘muriy ma‘lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funktsiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul, shuningdek ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubi bilan ta‘minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma‘lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma‘lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma‘lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma‘lumotlarini yig‘ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud

muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizomda, Davlat statistika qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma'lumotlarning maxfiyligini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibini shakllantirish bilan Markaziy apparatda 8 nafar xodim va hududiy statistika boshqarmalarining investitsiya va qurilish bo'limlarida 2-3 nafar xodim shug'ullanadi.

Xodimlar soni investitsiya statistikasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli.

Barcha xodimlar iqtisodiy va investitsiya sohasida oliy ma'lumotga ega va har ikki yilda kamida bir marta Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazida malakasi oshiriladi.

Har bir ish o'rni shaxsiy kompyuter bilan ta'minlangan, dasturiy ta'minot muntazam yangilanib turiladi.

Taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar qurilish statistikasi bo'yicha Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan ishlarni bajarish uchun yetarli.

1. Beg'arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy printsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo‘limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo‘ysunadi.

Mazkur statistik ma‘lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo‘l qo‘yilmagan va kasbiy mustaqillik to‘liq ta‘minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e‘tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslari, o‘quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o‘quv kurslarida ma‘ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e‘lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma‘lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni birlashtirish, ma‘lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog‘lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma‘lumotlar to‘plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma‘lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma‘lumotlarining sifati to‘g‘risida metama‘lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy printsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita raisi, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsipligiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konseptsiya va tushunchalar

2.1.1 Konseptsiya va tushunchalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibini hisoblash uslubiy metodologiyasi Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) tomonidan tavsiya etilgan xalqaro standartlarning talablariga javob beradi.

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar:

1. Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibini hisoblash uslubiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019 yil 28 iyun 34 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom»; «Система национальных счетов 2008»//Yevropeyskaya komissiya, Mejdunarodnyy valyutnyy fond, Organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestva i razvitiya, Organizatsiya ob'edinennyx natsiy, Vsemirnyy bank//Nyu-York 2012 g ; O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 26 yanvardagi 2-son qarori bilan tasdiqlangan “Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo'jaliklari qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom”ga Shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ 4.01.16-09) “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari”ga asosan hisoblanadi.

2. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibini hisoblash uslubiy asoslari xalqaro standartlar talablariga moslashtirilgan uslubiyatni qo'llagan holda 2004 yildan beri Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasining tavsiyalariga muvofiq ravishda amalga oshiradi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi umumiy hajmi quyidagi investitsiya faoliyatlarini o'z ichiga oladi:

- a) yirik korxonalar;
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar;
- v) fermer xo'jaliklari;
- g) investitsiya faoliyatini olib boruvchi notijorat tashkilotlari;
- d) yakka tartibdagi uy-joy qurilishi qismi bo'yicha, uy xo'jaliklari faoliyatini baholash.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Hech qanday istisnolar yo'q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (OKYeD 2-nashr) ga muvofiq amalga oshiriladi, mazkur tasniflagich Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy faoliyat tasniflagichi (KDYeS 2-nashr) ga mosdir.

Hisobning asosiy birligi bu – institutsional birlikdir.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar: Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi bo'yicha statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

Investitsiyalarning taqqoslama dinamikasi o'zgarishlarini, korxonalar va tashkilotlarning investitsiya faoliyati natijalarining aks etishini tahlil qilish uchun nisbiy ko'rsatkichdan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich, inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda taqqoslanayotgan davrlarda investitsiya hajmlari o'zgarishini tavsiflovchi asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi **fizik hajm indeksi** hisoblanadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi fizik hajm indeksini hisoblash taqqoslanayotgan davrlarda qiyosiy narxlarga keltirilgan investitsiya hajmlarini taqqoslash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi yig‘ma indeks-deflyator – yuridik va jismoniy shaxslarning asosiy kapitalga investitsiyalar hajmlarining o‘rtacha umumlashtirilgan indeksini qo‘llash orqali hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning asosiy kapitalga investitsiyalar indeks deflyatori qurilish-montaj ishlari, mashina, uskuna va boshqa kapital ishlar hamda xarajatlarning asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmidagi muayyan ulushlari bo‘yicha hisoblangan narx indekslarining umumlashtirilgan ko‘rsatkichi sifatida hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning asosiy kapitalga investitsiyalar indeks deflyatori qurilish materiallari va mehnat harajatlari narxlarining qimmatlashishi indeksidan kelib chiqqan holda jamlangan ko‘rsatkich sifatida hisoblanadi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Tranzaksiya va oqimlar 2008 yilgi MHT (SNS) tavsiyalariga muvofiq keladigan hisoblash usuli bilan ro‘yhatga olinadi.

2.4.3 Yalpi/sof ko‘rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi hajmiga iqtisodiy faoliyatning barcha turlaridagi yuridik shaxslar o‘zlashtirgan investitsiyalar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan turar joy va noturar joy ob‘ektlar qurilishida, ko‘p yillik o‘simliklari va zotli yirik qoramollar o‘zlashtirilgan investitsiyalar kiradi.

Statistik taxlilni o‘tkazish maqsadlarida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi quyidagicha: respublika bo‘yicha vazirlik va idoralar; respublika bo‘yicha hududlar va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning mulkchilik shakllari kesimida shakllanadi

Asosiy kapitalga investitsiyalar texnologik tarkibi bo‘yicha quyidagi ishlar va xarajatlar qiymati bo‘yicha ajratiladi:

- a) qurilish ishlarining barcha turlari va uskunalarini montaj qilish ishlariga;
- b) qurilish qiymatiga kiritilgan uskunalar (montaj talab qiladigan va qilmaydigan), asboblar, inventarlar (qurilish qiymatiga kiradigan va kirmaydigan), qurilish qiymatiga kirmaydigan va qurilishga aloqador bo‘lmagan mashina va uskunalar sotib olishga;
- v) boshqa kapital ishlar va xarajatlarga.

3. Aniqlilik va ishonchlilik

3.1 Birlamchi ma’lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish asoslari

Keng qamrovli va muntazam yangilanadigan korxonalar reyestri asosida korxonalarda statistik kuzatuvlari o‘tkaziladi.

Statistik faoliyatni amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 sentyabrdagi "Korxonalarining yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 274-son qaroriga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi keng qamrovli va muntazam yangilanadigan korxonalar registri (Korxonalarining yagona davlat registri) hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 66-son qarori hisoblanadi.

Korxonalar registrini yuritish tartibi (jumladan, yangi korxonalarni qo'shish, faoliyatini to'xtatgan korxonalarni chiqarish, mulkchilik shaklini o'zgartirish) belgilangan talablarga mos keladi. Ma'lumotlar yig'ish dasturining keng qamrovli xususiyatini ta'minlash maqsadida shakllangan ma'lumotlar doimiy ravishda tahlil qilinadi. Ro'y berayotgan jarayonlarni hisobga olgan holda hisobot shakllari vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqiladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi umumiy hajmi yilda bir marta, davlat statistika hisobotlarining birlamchi statistik ma'lumotlari bazasida, quyida keltirilgan davlat statistika hisobotlari va kuzatuvlari tomonidan aniqlangan ma'lumotlar asosida shakllantiriladi.

a) 2-invest (yillik) shakli "Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida"gi statistik hisobotini barcha iqtisodiy faoliyat turlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, qurilish xo'jalik boshqaruv organlarini qo'shgan holda (kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklardan, notijorat tashkilotlardan tashqari) taqdim etadilar;

b) 1-KB shakli (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" – barcha mulkchilik shaklidagi mikrofirma va kichik korxonalar taqdim qiladilar;

v) 1-FX shakli (yillik) "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot" – fermer xo'jaliklari taqdim etadilar;

g) 1-notijorat shakli (yillik) "Notijorat tashkilotining faoliyati to'g'risida hisobot" Notijorat tashkilotlari (jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari (XUJMSH) dan tashqari) taqdim qiladilar;

d) 1-NNT shakli (yillik) "Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati to'g'risida" Jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari taqdim qiladilar;

ye) 4-qurilish shakli (yillik) "Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda qurilgan turar joylarni va noturar binolarni foydalanishga topshirish to'g'risida hisobot"- Yergeodezkadastr davlat qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar, tuman organlari;

j) 1-DX shakli (yilda ikki marta) "Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyatlari - mahallalar fuqarolar yig'inlari taqdim qiladilar;

z) 1-TJ so'rovnomasi (bir martalik) "Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joyni tanlanma kuzatuv so'rovnomasi"- statistika organlari tomonidan kuzatuv o'tkaziladi;

i) 1-bozor narxlari blankasi (oyda uch marta) "Dehqon bozorlarida narxlarni ro'yxatga olish blankasi"- statistika organlari tomonidan kuzatuv o'tkaziladi.

Har chorakda asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi umumiy hajmi tezkor tartibda yirik korxonalarining hisobot ma'lumotlari asosida va boshqa yuridik

shaxslar (investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlari) investitsiyalari hajmini hamda uy xo'jaliklari faoliyatini (bunda har bir kategoriya bo'yicha alohida) baholash asosida hisoblanadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi choraklik hajmini tezkor baholash investitsiyalarning alohida guruhlarini va korxonalar kategoriyalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarning qiymati O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 26 yanvardagi 2-son qarori bilan tasdiqlangan "Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo'jaliklari qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga asosan har chorakda hisoblanadi.

Har chorakda yakka tartibdagi noturar joy ob'ektlari quruvchilarining qurilish ishlari hajmi (pudrat tashkilotlarini jalb qilmasdan) Yergeodezkadastr davlat qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar, tuman organlari tomonidan taqdim qilinadigan hisobotlari ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Joriy davrda sotib olingan meva ko'chatlari, uzumzorlar va tutzorlarning qiymati har gektarda ekilgan xar bir ko'chat turi va soni bo'yicha bir ko'chat narxida aniqlanadi.

1-DX shakldagi ma'lumotlar asosida qoramollar, qo'ylar va echkilar, otlar, tuya va cho'chqalar bosh soni bo'yicha ko'rsatkichlar aniqlanadi. Maxsus koeffitsiyentdan foydalanib, umr ko'rish davomiyligidan kelib chiqqan holda, asosiy kapitalning jamg'arilishi sifatida hisoblanadigan chorvalarning soni aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar dehqon bozorlarini o'rganish natijalari (1-bozor) asosida aniqlanadigan bir chorvaning narxiga ko'paytiriladi va shu asosida uy xo'jaliklarining chorvalarni sotib olish xarajatlarining umumiy hajmi shakllantiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan mashina, uskuna, qishloq xo'jaligi texnikasini, transport vositalarini sotib xarajatlarini baholash jo'natilgan sanoat mahsulotlari, asosiy tovar guruhlarini bo'yicha import hajmi (tashqi savdo statistikasi) bo'yicha ma'lumotlar va yakuniy iste'mol uchun avtomobillarning xaridi bo'yicha taxminiy ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi:

Asosiy ma'lumotlarni shakllantirilishi buxgalteriya hisobi va hisobot davridagi muddatga to'g'ri keladi.

Bajarilish vaqti choraklik – xisobot davridan keyingi 13 ish kunidan kechiktirmasdan, har yili – xisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi Davlat statistika ishlari dasturi tomonidan tartibga solinadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi ko'rsatkichlari to'g'risidagi choraklik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan hisobot davridan keyingi o'ning 13 kunidan kechikmasdan shakllantiriladi va u joriy ma'lumotlar standartiga mos keladi. Yillik ma'lumotlar - hisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Korxonalardan olingan ma'lumotlar nafaqat tuman statistika bo'limi va viloyat statistika organlari darajasida tahlil qilinadi, qolaversa Davlat statistika qo'mitasida ham nazorat va tekshiruvdan o'tadi. Ro'yhatga olish, tasniflash va xatolarni tekshirishda aniqlangan xato va kamchiliklar albatta respondentlar bilan yana bir bor aniqlashtirilib olinadi.

Dastlabki ma'lumotlar boshqa tegishli ma'lumot manbalari bilan taqqoslash yo'li orqali tahlil qilinadi.

3.3 Statistika usullari

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistika usullari

Ayrim toifalar (jismoniy shaxslar va boshqalar) uchun baholash hisob-kitoblari so'rovnomalar ma'lumotlari bilan konseptual muvofiqlashtirilgan va umumiy yondashuvlarga ega.

Respondentlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning majburiyligi «Davlat statistikasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilab qo'yilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi umumiy hajmi yirik korxonalarining hisobot ma'lumotlari asosida, kichik korxonalar va mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlari investitsiyalari hajmini hamda uy xo'jaliklari faoliyati (bunda har bir kategoriya bo'yicha alohida) asosida hisoblanadi.

Investitsiyalarning taqqoslama dinamikasi o'zgarishlarini, korxonalar va tashkilotlarning investitsiya faoliyati natijalarining aks etishini tahlil qilish uchun nisbiy ko'rsatkichdan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich, inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda taqqoslanayotgan davrlarda investitsiya hajmlari o'zgarishini tavsiflovchi asosiy kapitalga investitsiyalar texnologik tarkibining **fizik hajm indeksi** hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning asosiy kapitalga investitsiyalar indeks deflyatori qurilish-montaj ishlari, mashina, uskuna va boshqa kapital ishlar hamda xarajatlarning asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmidagi muayyan ulushlari bo'yicha hisoblangan narx indekslarining umumlashtirilgan ko'rsatkichi sifatida hisoblanadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar texnologik tarkibining fizik hajm indeksini hisoblash (har bir kategoriya bo'yicha alohida) taqqoslanayotgan davrlarda qiyosiy narxlarga keltirilgan investitsiya hajmlarini taqqoslash yo'li bilan quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$If.o. = (V1 : Vo) : Idefl * 10000,$$

bu yerda, If.o – fizik hajm indeksi, %;

V1, Vo – tegishli ravishda hisobot davri va o'tgan yilning shu davriga amaldagi narxlarda investitsiyalarning hajmi;

Idefl – indeks-deflyator, %.

O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi yig'ma indeks-deflyator – yuridik va jismoniy shaxslarning asosiy kapitalga investitsiyalari hajmlarining o'rtacha umumlashtirilgan indeksini qo'llash orqali hisoblanadi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019 yil 28 iyundagi 34-son qarori "Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom", "Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo'jaliklari qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom" O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 26 yanvardagi 2-son qarori bilan tasdiqlangan uslubiyatlarga asoslanib xisoblanadi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Baholangan va hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda solishtirib boriladi. Dastlabki va aniqlashtirilgan ma'lumotlar orasida katta tafovut chiqmaydi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Asosiy oraliq ma'lumotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklar tahlili o'tkazilib, ma'lumotlar mos kelmaslik holatini bartaraf etish uchun ko'rsatkichlar tuzatib boriladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Avval nashr etilgan ma'lumotlarda nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, keyingi ma'lumotlarda bu ma'lumotlarga o'zgartirish kiritiladi. Muvofiqlashtirish boshqa tashkilotlar va korxonalar bilan amalga oshirilishi mumkin.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi: Dastlabki yillik yanvar-dekabr oylari uchun ko'rsatkichlar yillik hisobot ma'lumotlari bilan hisobot davridan 6 oydan keyin taqqoslanadi. 2016 yildan boshlab OKYeD (2-nashr) tasniflagichiga o'tilishi sababli 2010 yildan 2015 yilgacha yillik hajmlar qayta hisoblab chiqildi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar: Asosiy kapitalga investitsiyalar texnologik tarkibining hajmi har chorakda, aniqlashtirilgan ma'lumotlar esa yillik hisobot asosida hisoblanadi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar: Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi hisobot davridan keyingi oyning 13 kuni, yillik ko'rsatkichlar esa hisobot davridan keyin 6 oydan kechikmasdan e'lon qilinadi (MTUT ma'lumotlarini tarqatish standartlariga to'g'ri keladi). MTUT ma'lumotlarini nashr qilish taqvimida belgilangan vaqt jadvaliga asosan e'lon qilinadi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Statistik qatorlar tasdiqlanib, e'lon qilingandan so'ng qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar: 1995 yildan asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibining dinamik qatorlari mavjud. Davlat statistika qo'mitasi asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibini Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasining tavsiyalariga ko'ra, 2004 yildan beri xalqaro standartlar talablariga muvofiq hisoblab boradi.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Statistik ma'lumotlar MHT (SNS) ma'lumotlari bilan muvofiqlashtirilgan.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar: Davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan muddatlarda, asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi ko'rsatkichlarining yillik statistik ma'lumotlari ko'rib chiqiladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi bo'yicha ma'lumotlar Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda aniqlashtirilgan yillik hisobotlar asosida qayta ko'rib chiqiladi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Statistik to'plamlarda oldingi yil uchun ayrim ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqilishi ko'rsatiladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali chop etiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistika ma'lumotlarini taqdim etish

Asosiy kapitalga investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar foydalanuvchilarga «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O'zbekiston Respublikasining statistik tasviri», «O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari» va boshqa nashrlar orqali onlayn va elektron shaklda taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali chop etilgan shaklda foydalanuvchilarga tarqatiladi: «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O'zbekiston Respublikasining statistika tasviri», «O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari» va boshqalar.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklda – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

«O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O'zbekiston Respublikasining statistik tasviri».

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so'rovlari bo'yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

«Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar» har choraklik byulleten.
Har chorakda veb saytda «O'zbekiston Respublikasining statistik tasviri» nashr etiladi.
Elektron press-reviz har chorakda

5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

--

5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

--

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Aniq tafsilotlarga so'rov bo'yicha ega bo'lish mumkin. O'zbekiston Respublikasining «**Rasmiy** statistikasi to'g'risida»gi qonuniga, «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida»gi nizomga, Statistik axborotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarga so'rovlari bo'yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarni yozma so'rovlari bo'yicha bosma yoki elektron jadval ko'rinishda, statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek tomonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi to'g'risidagi bitimlarga asosan amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konseptsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Davlat statistika qo'mitasining veb saytida (<https://lib.stat.uz/uz/uslub-mater-uz/investitsiyalar-va-qurilish>) statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish va hisoblash uchun uslubiy qo'llanmalar joylashtirilib kelinadi.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

--

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Davlat statistika kuzatuvlarining vositalarini (shakllari va anketalari) takomillashtirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Diskret choraklar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajm ko'rsatkichlarini hisoblash chiqish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

--

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ko‘zda tutilgan.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ko‘zda tutilgan.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich
Lavozim:	Investitsiya va qurilish statistikasi boshqarmasi boshlig'i
Bo'linma:	Boshqarma boshlig'i
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998-71-202-8056
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	j.saipov@stat.uz